O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI NAVOIY SHAHAR HOKIMINING QARORI

Navoiy sh., Amir Temur.k 4.

2022 - yil 3 - oktabr 252-5-79-Q/22 Navoiy shahar hokimligi

Navoiy shahridagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2023-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi 642-sonli Qonunining 9-bobi hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan 2023-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan;

Q A R O R Q I L A M A N :

1. O‘zbekiston Respublikasi “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasiga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun xodimlarning o‘rtacha soni 20 nafardan ko‘pini tashkil etadigan korxona, tashkilot va ta’lim muassasalarida 2023-yil uchun 10 foiz (shu jumladan nogironlar uchun kamida 3 foizini) miqdorida kelgusi yil uchun zahiraga qo‘yilayotgan ish o‘rinlarining jami 1133 ta kvota ish o‘rinlari ilovaga muvofiq, jumladan:

o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 33,5 foiz (380 kishi);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 36,3 foiz (412 kishi);

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 10,1 foiz (114 kishi);

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 3,1 foiz (35 kishi);

pensiya oldi yoshdagi shaxslar uchun 4,4 foiz (50 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 2,1 foiz (24 kishi);

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 0,17 foiz (2 kishi);

og‘ir turmush sharoitidagi xotin-qizlar (tasdiqlangan ro‘yxat asosida), kichik yoshli ishlamayotgan ayollar uchun 10,1 foiz (114 kishi);

miqdorida ish o‘rinlari zaxirasi belgilansin va shahardagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar kesimida ilovadagi jadval asosida tasdiqlansin.

2. Korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlariga:

ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish joylarining ko‘rsatib o‘tilgan miqdorini Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq belgilangan muddatlarda va tartibda yaratilishini (ajratilishini yoki band etib

qo‘yilishini) ta’minlash;

ish joylari sanitariya-gigiyena normalariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini bemalol bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlash;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun 2022-yil yakunlanishidan 10 kun oldin kvota ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foizi uchun, 2023-yilning 10-aprelidan kechikmay ish joylarining qolgan qismi 75 foizini barpo etish (ajratish yoki band qilib qo‘yish) to‘g‘risidagi, ya’ni har bir kvota toifasi bo‘yicha ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimidagi ma’lumotlarni va buyruq nusxalarini Navoiy shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga taqdim etish topshirilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonuni 3-, 18-, 34-, 39-, 40-, 41-moddalariga asosan ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga eng kam miqdordagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkur qarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandi, 2-qismiga asosan, muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha tumanlar (shaharlar) hokimlarining qarori bajarilmaganligi uchun jarima to‘lash tashkilotni zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grandlar ajratish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga (AV ro‘yxat raqami 3163-son, 31.05.2019-y.) asosan, “Ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan sonidan ortiq miqdorida ishga qabul qilingan tashkilotlarga – tashkilot murojaatiga ko‘ra har bir xodim uchun 12-oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya to‘lansin.

6. Tashkilotlar har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasigacha shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida axborot taqdim etishi shart.

7. Shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (Navro‘zov) besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini ilovada ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha shahar hokimining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortish ta’minlansin.

8. Mazkur qaror 2023-yil yanvar oyining birinchi ish kunidan rasman kuchga kirsin.

9. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari O‘.Haqberdiev zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **M.Egamqulov**

Navoiy shahar hokimining
2022 yil 3 oktabrdagi
252-5-79-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Navoiy shahridagi korxona, tashkilot va ta’lim muassasalarida 2023-yil zahiraga qo‘yilayotgan kvota ish o‘rinlari to‘grisida

T/R	Korxona, tashkilot, muassasalar nomi	Xodimlarning soni	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topshida qiynalayotgan ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam soni	Shu jumladan, toifalar							
				O‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar	Umumiy o‘rta va o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, ta’lim muassasalari ta’lim grantlari bo‘yicha o‘qigan bitiruvchilar	Muddatli harbiy xizmat	Nogironligi bo‘lgan shaxslar	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan yoki sudning qaroriga asosan tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar	Pensiya oldi yoshdagi shaxslar	Odam savdosi qurboni	Og‘ir turmush sharoitidagi xotin-qizlar ro‘yxati, kichik yoshli ishlamayotgan ayollar
1	“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ	370	11	2	5	1	1	1			1
2	“Navoiy mashinasozlik zavodi” Ishlab chiqarish birlashmasi AJ	3481	61	15	30	7	2	1	2		4
3	"NKMK" AJ "1-son Gidro-metallurgiya zavodi" kon boshqarmasi	1381	20	5	12	2					1
4	"NKMK" AJ Podstansiya va tarmoqlar sexi (SSiP)	157	8	2	4	1	1				
5	“NKMK” AJ Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish boshqarmasi (UAP)	185	5	2	2	1					
6	"NKMK" Jamg‘armasi ijtimoiy obyektlar Hududiy boshqarmasi	485	15	7	2	2	1	1	2		

7	"NKMK" AJ 3-sonli avtobaza	390	20	4	7	3		2	2		2
8	“NKMK” Jamg‘armasi ijtimoiy obyektlar hududiy boshqarmasi Tibbiy-sanitariya bo‘limi	968	12	3	5	1	1		1		1
9	"Issiqlik Manbai" DUK (OES)	812	30	8	13	5	2	1			1
10	"NKMK" AJ Markaziy moddiy-texnika bazasi (SMTB)	232	7	2	3	2					
11	"NKMK" AJ Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi (SNIL)	145	6	2	3	1					
12	"NKMK" AJ Zarafshon qurilish boshqarmasi "Sanoatelektromontaj" Tresti (MSU-79) AJ	1010	25	9	7	4	1	1	2		1
13	"Navoiyazot" AJ	8892	150	40	60	20	3	2	10		15
14	“Qizilqumsement” AJ	3393	50	24	10	10	2		3		1
15	“Navoiydonmahsulotlari” AJ	608	20	5	4	4	1	1	4		1
16	"Navoiy hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" AJ	668	8	2	4	2					
17	“NKMK” AJ Geologiya va qidiruv ekspeditsiyasi	223	14	4	5	1			2		2
18	“Navoiy Temir yo‘l transporti boshqarmasi" AJ (AO UJDT)	102	5	1	2	2					
19	"O‘zbekiston pochtasi" AJ Navoiy viloyat filiali	322	6	1	1	2			2		
20	"Navoiyavtotexxizmat" MCHJ	60	2	1	1						
21	Navoiy viloyati Bandlik Bosh boshqarmasi	33	1	1							
22	“NKMK” Jamg‘armasi Davlat muassasasi	180	8	2	2	2					2
23	Navoiy viloyati Moliya boshqarmasi	43	1	1							
24	“Davlat xizmatlari agentligi” Navoiy viloyati hududiy boshqarmasi	138	2	1	1						

25	Navoiy viloyati Sog‘liqni saqlash boshqarmasi	39	1	1							
26	Navoiy viloyati Davlat soliq boshqarmasi	131	2	1	1						
27	Navoiy shahar madaniyat va san’at maktabi	55	2	1	1						
28	Navoiy viloyati G‘aznachilik boshqarmasi	113	2	1	1						
29	Navoiy viloyati Transport boshqarmasi	51	1		1						
30	Navoiy viloyat Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi	163	4	1	1	1			1		
31	Karmana-Konimex irrigatsiya tizimi boshqarmasi	94	3	1	1	1					
32	Navoiy viloyati suv omborlari va yirik gidrotexnika inshootlaridan foydalanish boshqarmasi	65	3	1	1	1					
33	Navoiy shahar hokimligi uy-joy va yotoqxonalardan foydalanish boshqarmasi	167	5	2	2						1
34	Navoiy shahar imkoniyati cheklangan ko‘zi ojizlar maktabi	75	2	1	1						
35	Navoiy viloyati Madaniyat boshqarmasi	36	1	1							
36	“Navoiyuran” DK	220	10	4	3	2					1
37	Navoiy viloyati Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi	58	2	1							1
38	O‘zbekiston Respublikasi davlat aktivlarini boshqarish agentligi Navoiy viloyat hududiy boshqarmasi	29	1								1
39	Navoiy viloyati Statistika boshqarmasi	121	2		1						1
40	Navoiy shahar Obodonlashtirish boshqarmasi	679	15	4	1				6		4

41	Navoiy viloyat Sanitariya-epidemiologiya nazorat davlat markazi	139	6	2	3						1
42	Viloyat Ona va bola skrining markazi	30	1	1							
43	Navoiy shahar tibbiyot birlashmasi Ko‘p tarmoqli shahar markaziy poliklinikasi	589	15	5	5	1	1				3
44	1-son oilaviy poliklinika	174	5	3	1						1
45	2-son oilaviy poliklinika	113	4	1	2						1
46	3-son oilaviy poliklinika	115	4	2	1						1
47	4-son oilaviy poliklinika	188	4	1	2						1
48	Navoiy viloyati Ko‘p tarmoqli tibbiyot Markazi	455	20	7	5	1	1	1			5
49	Navoiy viloyati endokrinologiya dispanseri	234	8	2	2			1			3
50	Navoiy viloyati teri-tanosil shifoxonasi	190	3	2	1						
51	Salomatlik va tibbiy statistika instituti Navoiy viloyat filiali	35	1		1						
52	Navoiy viloyati Onkologiya dispanseri	230	7	2	3						2
53	Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy Markazi Navoiy filiali	1152	30	9	12	2	1	3			3
54	Navoiy viloyati Bolalar ko‘p tarmoqli Tibbiyot markazi	417	20	7	6	2		1			4
55	Navoiy viloyati Perinatal Markazi	550	12	5	3			1			3
56	Navoiy viloyati Silga qarshi kurash va ftiziatriya dispanseri	227	8	2	3	1	1				1
57	Navoiy viloyati Bolalar yuqumli kasalliklar va parazitologiya shifoxonasi	191	9	5	2	1					1
58	Navoiy shahar davlat Sanitariya-epidemiologiya nazorati Markazi	53	2	1							1
59	“Baxt-tekstil” MCHJ	500	15	6	4		2				3

60	Navoiy viloyati Narkologiya dispanseri	145	3	1	1						1
61	Navoiy viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasi avtobazasi	526	12	5	2		1	2	2		
62	Respublika o‘rta tibbiyot va dorishunos xodimlar malakasini oshirish va ixtisoslashtirish markazi Navoiy viloyat hududiy bo‘limi	50	2	1	1						
63	“OITS”ga qarshi kurashish Markazi	97	2	1	1						
64	Navoiy viloyati Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun mintaqaviy reabilitatsiya markazi	120	3	1	1		1				
65	Zarafshon qurilish boshqarmasi Navoiy qurilish montaj boshqarmasi	450	20	5	8	3			4		
66	Navoiy viloyat sud-tibbiy ekspertiza byurosi	112	3	1	2						
67	Navoiy Davlat Konchilik instituti	492	9	5	2			1			1
68	Navoiy Davlat pedagogika instituti	955	35	12	10	4	3		2	1	3
69	Navoiy olimpiya zahiralari kolleji	238	3	1			1				1
70	Havoiy shahar kasb-hunar maktabi (Navoiy konchilik kolleji)	92	3	1	1						1
71	Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat salomatlik texnikumi	100	2	1			1				
72	Navoiy viloyati Futbol akademiyasi	72	4	1	1	1	1				
73	“O‘zbektelekom” AJ Navoiy telekom filiali	35	1			1					
74	Navoiy shahar Moliya bo‘limi	22	1		1						
75	Havoiy shahar “Suvoqava” Davlat unitar korxonasi	45	2	1	1						

76	TIF “Milliy bank” Navoiy bo‘limi	52	2	1	1						
77	AT “Sanoat qurilish banki” Navoiy filiali	58	2	1	1						
78	ATB “Agrobank” Navoiy filiali	66	2	1	1						
79	ATB “Mikrokreditbank” Navoiy filiali	59	2	1	1						
80	DAT “Asaka bank” Navoiy viloyati filiali	61	2	1	1						
81	AT "Qishloqqurilishbank" Navoiy mintaqaviy filiali	58	2	1	1						
82	AT “Ipak yo‘li banki” Navoiy filiali	42	2	1	1						
83	AT "Savdogarbank" Navoiy filiali	32	1		1						
84	AT “Turonbank” Navoiy filiali	59	2	1	1						
85	AT “Ipotekabank” Navoiy filiali	61	2	1	1						
86	“Navoiy-Ishonch-gilamlari” MCHJ QK	120	10	2	2	3	1		1		1
87	Navoiy viloyati Axborot - kutubxona markazi	55	2	1	1						
88	“Yangi Hayot” MCHJ	520	30	14	6	3	2				5
89	M.Glinka nomli 1-son bolalar musiqa va san’at maktabi	79	2	1	1						
90	8-son Bolalar musiqa va san’at maktabi	59	2		1		1				
91	O‘zbekiston Davlat Filarmoniyasi Navoiy viloyati bo‘linmasi	63	1		1						
92	Kadastr agentligi Navoiy viloyati boshqarmasi	52	1		1						
93	Navoiy viloyati yer resurslari va davlat kadastr boshqarmasi	230	2	1	1						
94	Navoiy davlat konchilik Instituti akademik litseyi	108	2	1					1		
95	Navoiy viloyati "Yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri" davlat korxonasi	27	1		1				1		

96	Navoiy viloyati Davlat arxivi	29	1		1						
97	Navoiy shahar Arxiv ishlari bo‘limi	21	2	1	1						
98	Viloyat Xalq ta’limi boshkarmasi	56	2	1	1						
99	Navoiy shahar Xalq ta’limi bo‘limi	37	1	1							
100	1-Davlat ixtisoslashtirilgan umum ta’lim maktabi	160	5	1	3						1
101	2-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	110	3	1	1						1
102	3-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	117	4	1	2						1
103	4-Davlat ixtisoslashtirilgan umum ta’lim maktabi	151	5	2	1		1				1
104	5-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	83	3	1	1						1
05	6-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	190	6	1	3	1					1
106	7-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	160	5	1	2			1			1
107	8-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	244	7	2	2		1				2
108	9-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	60	1								1
109	10-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	155	3		1	1					1
110	11-Davlat ixtisoslashtirilgan umum ta’lim maktabi	234	5	2	2						1
111	12-Davlat ixtisoslashtirilgan umum ta’lim maktabi	190	5	2	2						1
112	13-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	87	3	1	1	1					
113	14-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	80	3	1	1	1					
114	15-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	90	3	1	1						1
115	16-Davlat ixtisoslashtirilgan umumiy ta’lim maktabi	208	6	2	2						2

116	17-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	175	4	2	2						
117	18-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	85	3	1	1	1					
118	19-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	141	5	2	1	1					1
119	20-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	95	3	1	1						1
120	Navoiy viloyati maktabgacha ta’lim boshqarmasi	27	1		1						
121	Navoiy shahar maktabgacha ta’lim bo‘limi	43	2	1	1						
122	Navoiy shahar 1-son “Oltin baliqcha" maktabgacha ta’lim muassasasi	67	3	2	1						
123	Navoiy shahar 2-son maktabgacha ta’lim muassasasi	37	1		1						
124	Navoiy shaxar 3-son “KARVON” maktabgacha ta’lim muassasasi	30	1		1						
125	Navoiy shahar 4-son "NIGINA" maktabgacha ta’lim muassasasi	70	2	1	1						
126	Navoiy shahar 5-son "NAVRO‘Z" maktabgacha ta’lim muassasasi	51	2	1	1						
127	Navoiy shahar 6-son "RA’NOGUL" maktabgacha ta’lim muassasasi	35	1		1						
128	Navoiy shahar 7-son "BO‘G‘IRSOQ" maktabgacha ta’lim muassasasi	75	2	1	1						
129	Havoiy shahar 8-son "PAXTAOY" maktabgacha ta’lim muassasasi	75	2	1	1						
130	Navoiy shahar 9-son "AYIQCHA" maktabgacha ta’lim muassasasi	68	2	1	1						

131	Navoiy shahar 10-son "ERTAK" maktabgacha ta’lim muassasasi	70	3	1	1						1
132	Navoiy shahar 11-son "BULBULCHA" maktabgacha ta’lim muassasasi	76	3	1	1						1
133	Navoiy shahar 12-son "NURCHALAR" maktabgacha ta’lim muassasasi	49	2	1	1						
134	Navoiy shahar 13-son "KICHKINTOY" maktabgacha ta’lim muassasasi	43	2		1						1
135	Navoiy shaxar 14-son "NILUFAR" maktabgacha ta’lim tashkiloti	53	2	1							1
136	Navoiy shahar 15-son "QUVONCH" maktabgacha ta’lim muassasasi	66	2	1	1						
137	Navoiy shahar 16-son "QO‘NG‘IROQCHA" maktabgacha ta’lim muassasasi	62	2	1	1						
138	Navoiy shahar 17-son "KABUTARCHA" maktabgacha ta’lim muassasasi	31	1		1						
139	Navoiy shahar 18-son "KAMALAK" maktabgacha ta’lim muassasasi	47	2	1	1						
140	Navoiy shahar 19-son "YULDUZCHA" maktabgacha ta’lim muassasasi	90	3	1	1	1					
141	Navoiy shahar 20-son "G‘UNCHA" maktabgacha ta’lim muassasasi	68	2		1	1					

142	Navoiy shahar 21-son "QUYOSHJON" maktabgacha ta’lim muassasasi	41	2	1	1						
143	Navoiy shahar 22-son "TURNACHA" maktabgacha ta’lim muassasasi	37	1		1						
144	Navoiy shahar 23-son "BARCHINOY" maktabgacha ta’lim muassasasi	64	2	1	1						
145	Navoiy shahar 24-son "QALDIRG‘OCH" maktabgacha ta’lim muassasasi	69	2	1	1						
146	Navoiy shahar 25-son "NAFOSAT" maktabgacha ta’lim muassasasi	70	2	1	1						
147	Navoiy shahar 26-son "TURNAXOH" maktabgacha ta’lim muassasasi	84	2	1	1						
148	Navoiy shaxar 27-son "BINAFSHA" maktabgacha ta’lim muassasasi	53	2	1	1						
149	Navoiy shahar 28-son "GULDASTA" maktabgacha ta’lim muassasasi	50	2	1	1						
150	Navoiy shahar 29-son "MARJON" maktabgacha ta’lim muassasasi	50	1	1							
151	Navoiy shahar 30-son "TABASSUM" maktabgacha ta’lim muassasasi	65	2	1	1						
152	Navoiy shahar 31-son "KO‘ZMUNCHOQ" maktabgacha ta’lim muassasasi	72	3	1	1						1

153	Navoiy shahar 32-son "TUMARIS" maktabgacha ta’lim muassasasi	72	3	1	1						1
154	Navoiy shahar 33-son "UCHQUN" maktabgacha ta’lim muassasasi	67	2	1	1						
155	Navoiy shahar 34-son "MO‘JIZA" maktabgacha ta’lim muassasasi	70	3	1	1						1
156	“Hududgaz” AJ Navoiy viloyat filiali	513	7	1	1	1	1	1	1		1
157	Navoiy shahar “Barkamol avlod" bolalar Markazi	28	1		1						
158	1-sonli Bolalar va o‘smirlar sport maktabi	62	1	1							
159	Gimnastikaga ixtisoslashtirilgan Bolalar va o‘smirlar Sport maktabi	50	1		1						
160	Navoiy shahar 2-sonli bolalar-o‘smirlar sport maktabi	45	1		1						
161	Sportning suv turlariga ixtisoslashtirilgan bolalar-o‘smirlar sport maktabi	37	1		1						
162	Sportning o‘yin turlari va yengil atletikaga ixtisoslashtirilgan bolalar-o‘smirlar sport maktabi	95	2	1	1						
163	Yakka kurash turlariga ixtisoslashtirilgan bolalar va o‘smirlar sport maktabi	79	2		1	1					
164	“NKMK” DM “So‘g‘diyona” jismoniy tarbiya va sport klubi	24	2		1	1					
165	“NKMK DM “Farhod” madaniyat saroyi	40	2	1	1						
166	Havoiy viloyati Teleradiokompaniyasi	61	2	1	1						
167	Davlat Arxitektura va qurilish Bosh boshqarmasi	35	2	1	1						
168	Navoiy viloyati Qon quyish stansiyasi	54	2	1	1						

169	Navoiy viloyati Davlat arxitektura-qurilish nazorati inspeksiyasi	51	2	1	1						
170	O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Navoiy viloyati boshqarmasi	55	1		1						
171	"Navoiyneftbaza" UK	31	3	1	1				1		
172	Navoiy viloyati chorvanasl markazi	64	1	1							
173	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi	23	1	1							
174	Navoiy shahar veterenariya bo‘limi	30	1	1							
175	"Navoiy agrokimyohimoya" hududiy aksiyadorlik jamiyati	51	2	1	1						
176	Navoiy viloyati Arxitektura va qurilish Bosh boshqarmasi	43	2	1	1						
177	"Temir yo‘l depo" AJ	420	12		10			1		1	
178	Navoiy viloyati Davlat o‘rmon xo‘jaligi	91	3	1	1	1					
179	"Janubsanoatmontaj" AJ	320	10	7	2				1		
180	Navoiy viloyati maxsus ekspluatatsiya-montaj bo‘limi	36	1			1					
181	“Xumo-Zilola” uy-joy mulkdorlar kompaniyasi	59	2	1							1
182	Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi Navoiy shahar bo‘limi	21	1	1							
183	Navoiy viloyati Avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi	42	2		1			1			
184	“Navoiy mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati” Davlat unitar korxonasi	25	1		1						
185	Navoiy viloyatiUy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi	68	2	1	1						

186	Navoiy Temir yo‘l ishora filiali	223	4	4							
187	Quyi Zarafshon gidro-geologiya meliorativ ekspedisiyasi	74	1	1							
188	Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi	75	1		1						
	Jami:	**45348**	**1133**	**380**	**412**	**114**	**35**	**24**	**50**	**2**	**114**